

“DINSHUNOSLIK” FANIDAN “ISLOM DININING XXI ASRDA TUTGAN O’RNI”

O’razaliyev Davron Rustam o’g’li
Berdiyorov Shahzod Latifjon o’g’li

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti
Samarqand filiali Kompyuter injineriing fakulteti KI 22-01 guruh talabalari*

Annotatsiya: *Islom dini hozirgi juda tez rivojlanayotgan dunyoda tutayotgan o’rni , zamonaviy fikrlashga ega bo’lgan aholining qaysi dinga e’tiqod qilishi , ko’pchilik insonlarning nega aynan Islom diniga e’tiqod qilishi haqida fikrlarni yoritib berish hamda Islom dini haqida taasurol qoldirish.*

Kalit so’zlar: *Islom dini, musulmonlar, nasroniylar, yahudiylar, Qur’oni Karim ,Budparaslik, Makka va Madina , molikiylik, xanbaliylik, aqida ,tasavvuf.*

Kirish Islom dinining XXI asrda tutgan o’rni

Islom jahonda keng tarqalgan uch dindan biri. Islom diniga e’tiqod qiluvchilar arabcha „muslim“ deb ataladi.

Jahonda dunyo aholising 24,9%i, ya’ni 1,1—1,8 milliard kishi Islomga e’tiqod qiladi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko’prog’i Osiyoda yashaydi va bu qit’a aholisining 20%i dan ortiqrog’ini tashkil etadi. Qariyb 30% musulmonlar Afrikaga to’g’ri keladi (qit’a aholisining deyarli yarmi). Dunyoda musulmon jamoalari mavjud bo’lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 40 dan ziyodida musulmonlar aholiningko’pchiligini tashkil qiladi - Shimoliy Afrika, G’arbiy Osiyoning barcha mamlakatlarida Senegal, Gambia, Niger, Somali, Afg’oniston, Pokiston, Bangladesh Indoneziya va boshqa ba’zi mamlakatlarda aholining 80%dan ortig’i musulmonlardir; bir qancha mamlakatlarda musulmonlar aholining yarmidan 80% I gacha tashkil qiladi. Malayziya va Nigeriyada qariyb yarmi, ba’zi bir mamlakatlarda musulmonlar ozchilikni tashkil qilsa ham, ta’sir doirasi kuchli. Musulmonlarning soni jihatdan eng yirik Davlatlar- Indoneziya, Hindiston, Pokiston va Bangladesh; Islom VII asrda Hijoz (G’arbiy Arabiston)da paydo bo’ldi. Uning asoschisi Muhammad sanaladi. Islomdinining paydo bo’lishi xususida Islom manbalariga asoslangan dini yanada u ilohiy hodisa, insonlarni to’g’ri yo’lga solish uchun Alloh taolo tomonidan yuborilgan oxirgi ta’limot deb hisoblanadi. Islom talqinida dastlab yahudiy va xristianlar ham aynan musulmonlar e’tiqod qilgan xudoga ishonganlar. Shu Xudo,ya’ni Alloh odamlarga payg’ambarlar va elchilar yuborgan, ammo insonlar payg’ambarlar ta’limotini buzganlar. Shuninguchun Alloh insonlarga oxirgi rasul etib Muhammadni tanladi, unga o’zining kalomi—Qur’on nozilqildi. Muhammad oldin o’z hamshaharlarini, so’ng barcha arablarni ko’plab qabila xudolariga sig’inishdan voz kechish va yagona Xudo — Allohga e’tiqod qilish, solih hayot kechirish, u dunyoda jannatga tushish uchun butun dunyoda ezgu ishlar qilishga da’vat etdi. Qur’onga ko’ra,

arablar va yahudiylarning umumiy bobokaloni Ibrohim Allohga birinchi bo‘lib imon keltirgan. Demak, Islom batamom yangi e‘tiqod emas, balki Ibrohimga nozil bo‘lgan dinidir.

Muhammadga, 40 yoshida (milodiy 610-yil) vahiy (ilohiy ko‘rsatma) kelishni boshladi, biroq bir necha nufuzli yaqin qarindoshlarini hisobga olmaganda, Makkaning ko‘pchilik aholisi, ayniqsa, Quraysh qabilasining zodagonlari uning targ‘ibotlariga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdilar. Muhammadni yolg‘onchiga chiqarib juda katta zulm ko‘rsatildi.

Dastlab bir guruh musulmonlar Habashistonga hijrat qilishdi, Yasribdagi BanuAvs va BanuHazraj qabilalarining vakillari 622-yilda musulmon jamoasini o‘ziga qabul qilish, Muhammadni payg‘ambar va Allohni yagona deb tanolishdi. Hijrat nomini olgan bu voqea Islom tarixida burilish yasadi. Ko‘chib o‘tgan kishilar muhojirlar (ko‘chibkelganlar), Madinada Islomni qabul qilganlar ansorlar (tarafdorlar) deb ataldilar. Madina va Makka o‘rtasida boshlangan kurash 8 yil davom etdi (qarang Badrjangi, Uhud jangi, Xandaq jangi va boshqa).

628-yilda Makka zodagonlari Muhammad bilan kelishishga majbur bo‘ldilar (qarang Xudaybiyasulhi). 630-yilda musulmonlar qo‘shini hech qanday qarshiliksiz Makkaga kirib bordi. Makka aholisi yoppasiga Islom dinini qabul qildi va Muhammadni Allohning elchisi deb e‘tirof etdi. Ana shundan boshlab Makka Islomdini markaziga, Ka‘ba musulmonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylangan. Muhammad vafot etgan 632-yilda Arabiston yarimoroli to‘la birlashtirilgan, uning aksariyat aholisi Islomdinini qabul qilgan edi. Arabistonning siyosiy, iqtisodiy, etnik va madaniy jihatlardan birlashishida Islom dini muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Oila inqirozi. Butun dunyo oilaning maqomi to‘g‘risidagi munozaralar avj olgan davrda yashamoqda, U “tushkun” Shimol hamda taroqqiyparvar, lekin qashshoq Janub o‘rtasidagi mafkuraviy to‘qnashuvlar markazida turibdi. Bu to‘qnashuvlarning qoq markazi bo‘lgan Yevropadagi musulmonlar jamoasi o‘z o‘rnini topish va omon qolishga urinmoqda. Xar safar televizorni yoqib qo‘yib, tomosha qilar ekanmiz, shimolning qotib qolgan qarashlari va qat‘iy tarzda oilada yashashga o‘rgangan Uchinchi dunyoning Xastaliklari, u yerda istiqomat qiladigan aholining liberal demokratik jamiyatlardagi kabi ijtimoiy aqidalarga mos tarzda yashashni mutlaqo istamasligi xujjatlari filmlarning intixosiz va jiddiy gumanitar parxezi allalagan tahlikasini kuzatishga majbur bo‘lamiz.

Islom ma‘aviyati: Unitilgan inqilob. Shekspir aytgandek, “qon muhokama etilmaydi”. Tasavvufki, bugungi kunda musulmonlar safi o‘z gapiga qo‘shilmaydigan kishilar bilan to‘lib ketti. Kechagi global moliya ramzi bo‘lgan Jahon savdo markazi bugungi kunda G‘arb o‘zining boshqarib bo‘lmaydigan yo‘llariga kunda G‘arb o‘zining boshqarib bo‘lmaydigan yo‘llarini Sharq tomon burishi mumkunligiga ishongan kishilarni nazorat qilishga qaratilgan urinishlarini barbod etgan global Islomning haykaliga aylandi.

<<«Islom va yangi ming yillik»: Biz musulmon sifatida ishgakirishishdan oldin kamida ikkita taraddudga ehtiyoj sezamiz. Birinchidan, garchi mustaqil bo'lmagan tamaddun a'zolari sifatida 2000 yildan qochib qutulolmasak-da, yangi ming yillik bizning ming yilligimiz emasligini tan olishimiz kerak. Bugungi kunda har bir musulmon davlati shoshilinch bir tarzda milodni va shunga asosan, avliyo Grigoriy tuzgan, xristianlik asos qilibolingan taqvimni tan oladi. Islom tarixining Muhammad payg'ambar hijratidan undan oldin o'tgan payg'ambar tavalludi bilan bog'liq joriy taqvimga moslangani tufayli ko'pgina islomiy davlatlar yangi asr boshlanishini qaysidir darajada nishonlashni rejalashtirib ham qo'ydi. Musulmon mamlakatlaridagi shoshib qolgan va dunyoviydashgan aholi ushbu voqea munosabati bilan g'alati bir hayajonga tushib qoldi: hatto Turkiyada "Ikbin'e dogru" («Ikki minginchi yil sari») haftalik jurnali ham chop etila boshladi. Bunday asabiy hayajon bizga g'alati tuyulishi tabiiy: biz musulmon sifatida o'z taqvimimizga va tarixiy mezonlarimizga egamiz. Aslida 2000 yil hijriy 1420 yilda boshlandi. Shunday ekan, bu sana e'tiborga molik deyishga arziydimi?

Bu odamning g'azabini qo'zg'ovchi va nomaqbul G'arb ta'sirining yana bir ko'rinishi emasmi? Ayrim zamondosh olimlar (Ye.P.Sanderz, Jeza Vermes va hk.) ning tadqiqotlariga asosan, Iso (a.s.) miloddan oldingi 6 yilda tavallud topganini inobatga olsak, ushbu fikr yanada qat'iylashadi. Agar shu gaplar rost bo'lsa, quyosh taqvimiga ko'ra, uchinchi ming yillik 2000 yilda emas, 1994 yili boshlangan bo'lib chiqadi, 2000 yilni nishonlash aslida behuda bir ish, ya'ni yangi zamon bayrami ekani ma'lum bo'ladi. Londondagi Ming yillik qubbasi singari kinoyaomuz va gumanistik loyihalar bilan tanishgan kishi bir narsaga amin bo'ladi: odamlar Iso Masihning tavalludini emas, balki bema'ni fakt - uchta nolning yonma-yon kelishini nishonlashmoqda. Xullas, bu voqea bugungi kun xristianlari uchun behuda narsalar tizimi, bema'niliklar yubileyi bo'ldi, xolos.

Ikkinchi, tashvishli hol bizning kelajak xususida ishonch bilan gapirish qobiliyatimizga daxldordir. Men ushbu bob va butunkitob davomida (o'quvchilarni) Islomning Buyuk ming yillikdan so'ng olishi mumkin bo'lgan yo'nalishi haqida bot-bot mulohaza yuritishga da'vat etmoqchiman. Biroq Ash'ariy va Motirudiy nuqtai nazaridan qaraganda, ilohiyotshunoslik nozik masaladir: biz unga halol yo'l bilan yechim topishimiz mumkinmi? Kelajak ko'zdan olis narsa, uni ko'rib bo'lmaydi, ufaqat al-Qodir al-Olim, ya'ni yagona bilguvchi zot – Allohgagina ayon kitobdir. Ehtimol, bani bashar o'z umrining intihosiga yetib borayotgani yaxshidir. Qodir va qahhor Alloh qiyomat kunidan oldin soatlarni to'xtatib qo'yishi ham mumkin. Biz - insonbolalari, ilohiy adolatning bir ko'rinishi sifatida bu ishdashunchaki vosita bo'lishimiz mumkin, xolos: bunday paytda, birzamonlar Rossiyaga birinchi bo'lib yadroviy zarba berish kerak, deb turib olgan president Kennedining strategic bombardimon kuchlariga ega bo'la turib ham ikkilanganini eslash kifoya. Biroq bu - mushohada yuritishni talab etadigan mavzu. Jabroil farishta haqidagi hadisda u (Muhammad) payg'ambar (s.a.v.s.)ning oldiga kelgani, Rasululloh farishtadan, o'sha

soat qachon keladi, deb so‘ragani, u (Jabroil) esa «savolga tutilgan ham savol beruvchidan ko‘proq narsani bilmaydi», deb javob bergani rivoyat qilinadi. Biroq Qur‘oni karimda aytilganiday, «falak shusavolga homiladordir». Inson qo‘li bilan yoki o‘zi keladigan ofatsiz ushbu kitobni o‘qib tugatmasingizdanoq ro‘y berishi ham mumkin.>>(1)

Islom dini musulmon mamlakatlari san‘atida o‘z izini qoldirdi. Me‘morlik sohasida bujarayon yangi imorat turlari (masjid, minora, xonaqoh, madrasa va boshqa)ning paydo bo‘lishiga hamda keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Islom dini paydo bo‘lgan davrda avj olgan butparastlik, suratparastlikni oldini olish maqsadida Muhammad suratkashlikni qattiq ta‘qiqlab qo‘ygan edi. Shu asosda Islomning yirik mutafakkir huquqshunoslari ham tasviriy san‘atning bu turini ta‘qiqlangan ishlar qatoriga qo‘shganlar. Bundan ular amaliy san‘at turlari, naqsh, bezakva o‘simliklar suratini istisno qilishgan. Islomda inson suratini chizish yoki uning haykalini yasashning taqiqlanishiga asosiy sabab — payg‘ambar va aziz-avliyolarning rasmlarini chizib yoki haykallarini yasab, ularga sig‘inib ketish xavfining mavjudligi bo‘lgan.

XXI asrlarga kelib, Islom dunyosi ulamolarining bu san‘atga munosabatlariga yana bir karra aniqlik kiritildi: ilohiylashtirish va odamlarning sig‘inishi maqsadida inson rasmini chizish mumkin emasligi e‘tirof etildi. Ulamolarning bergan fatvolariga ko‘ra, musulmonlarga fahsh va uyat narsalarni ifoda etuvchi rasmlar, but, sanam va ikona tasvirlar qat‘iyan ta‘qiqlangan.

Islom dini o‘zgarimoqdami? Albatta yo‘q. Shu kabi savollar hozirgi kunda avj olib ulgiran. Yahudiylar yoki Nasroniylar o‘zgargani haqida aytuvchi musulmonlar ularning ilohiy kitoblari buzilganiga ishora qilishadi. Ayni fikr tarafdorlariga ko‘ra, Qur‘oni Karim buzilmagan va shu bois Islom dini ham aslo o‘zgarmaydi. Ammo dunyo dinlari tarixan ko‘plab o‘zgarishlarni boshdan kechirishgan. Bunga milliy an‘analar, siyosiy ta‘qiblar va yoki hayot tarzi hamda dindorlar yashagan sharoitlar undagan. Birasrda cherkov davlatni boshqargan, boshqa asrga kelib din davlatdan ajragan. Bu kabi din ta‘siri kuchaygan va zaiflashgan davrlar nafaqat Ibrohimdan keladigan uch din – Yahudiylik, Masihiylik va Islomda ko‘rinadi, balki boshqa dinu ishonchlarda ham mavjud.

Ammo dinlar sharoitga moslashganida yangi oqimlar yo mazhablar ham yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR:

1. "XXI asrda Islom" Timoti J.Uinter Faxriddin Nizomov tarjimasida.(1)
2. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. uz.m.wikipedia.org
4. At-Termiziy. "Shamoili Muhammadiya" Sayid Mahmud Taroziy-Alixon To‘ra tarjimasida. T:"Mehnat" nashr, 1991.

5. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi qonuni (yangi tahriri). T.: Adolat 1998 yil.
6. Karimov I. A “Inson huquqlari va erkinliklari eng oliy qadriyat” Toshkent “O`zbekiston ” nashriyoti 2007 yil.
7. At-Termiziy. Shamoili Muhammadiya. Sayid Mahmud Taroziy-Alixon to’ra tarjimasini. T.: “Mehnat” nashr, 1991.
8. Ибрагимов Н. И. Святых в исламе по арабским источникам XII-XIV вв; Ислам в истории народов Востока. М., 1991 год.
9. At-Termiziy. Sahih at-Termiziy. A.Abdullo tarjimasini. T.: G’G’ulom nomidagi “Adabiyot va san’at” nashriyoti, 1993.
10. Mahdum. Toshkentdagi “Mushafi Usmoniy” tarixi. T.: 1996.
11. Imom al-Buxoriy. Al-Jomi as-Sahih: IV jild. T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1993.
12. Imom al-Buxoriy. Al-Adab al-Mufrad. T.: O’zbekiston, 1990.
13. Uvatov U. Muslim ibn al-Hajjoj. T.: A.Qodiriy nashriyoti, 1998.

